MUZEY PEDAGOGIKASIDA TA'LIM DASTURLARINI BIRLASHTIRISH TEXNOLOGIYALARI VA USULLARI

Ashirova Noila
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
IGFO`M(Tarix) yo`nalishi 2-bosqich magistranti
P.f.d.(DSc) dotsent **S.A.Toshtemirova**

imrconf.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada muzey pedagogikasida ta'lim dasturlarini birlashtirishning zamonaviy texnologiyalari va samarali usullari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida muzey muhiti asosida formal, noformal va informatsion ta'lim yo'nalishlarini integratsiyalash imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, interaktiv ekskursiyalar, raqamli platformalar, loyihaviy faoliyat, multimedia vositalari hamda fanlararo yondashuvlarning ta'lim jarayonidagi didaktik ahamiyati ochib beriladi. Maqolada ta'lim dasturlarini uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarning bilish faolligini oshirish, tarixiy-madaniy merosga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish va kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalari muzey pedagogikasi amaliyotida innovatsion ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda metodik asos sifatida xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *muzey pedagogikasi, ta'lim dasturlarini birlashtirish, integratsiyalashgan ta'lim, innovatsion texnologiyalar, interaktiv usullar, noformal ta'lim, raqamli ta'lim vositalari, fanlararo yondashuv, madaniy meros, kompetensiyaviy yondashuv.*

Аннотация: *В статье анализируются современные технологии и эффективные методы интеграции образовательных программ в музейной педагогике. В ходе исследования раскрываются возможности объединения формального, неформального и информального образования в условиях музейной среды. Особое внимание уделяется дидактическому*

потенциалу интерактивных экскурсий, цифровых платформ, проектной деятельности, мультимедийных средств и междисциплинарного подхода в образовательном процессе. Подчеркивается значение интеграции образовательных программ для повышения познавательной активности обучающихся, формирования осознанного отношения к историко-культурному наследию и развития компетентностного подхода. Полученные результаты могут быть использованы в практике музейной педагогики при разработке инновационных образовательных программ.

Ключевые слова: *музейная педагогика, интеграция образовательных программ, интегрированное обучение, инновационные технологии, интерактивные методы, неформальное образование, цифровые образовательные средства, междисциплинарный подход, культурное наследие, компетентностный подход.*

Annotation: *This article analyzes modern technologies and effective methods for integrating educational programs in museum pedagogy. The study highlights the possibilities of combining formal, non-formal, and informal education within the museum environment. Particular attention is paid to the didactic potential of interactive excursions, digital platforms, project-based learning, multimedia tools, and interdisciplinary approaches in the educational process. The article emphasizes the role of integrated educational programs in enhancing learners' cognitive engagement, fostering a conscious attitude toward historical and cultural heritage, and developing a competency-based approach. The research findings can serve as a methodological basis for designing innovative educational programs in museum pedagogy practice.*

Key words: *museum pedagogy, integration of educational programs, integrated education, innovative technologies, interactive methods, non-formal education, digital educational tools, interdisciplinary approach, cultural heritage, competency-based approach.*

imrconf.com

Mustaqillik sharoitida jamiyatdagi yangi o'zgarishlami amalga oshirish jarayonida, jamiyat a'zolarini erkin, demokratik tafakkur va milliy g'oya ruhida tarbiyalash vazifalarini bajarishda muzeylarning ahamiyati ortib bormoqda. O'zbekiston Respublikasidagi muzeylar va tarixiy me'moriy yodgorliklar millatning madaniy uyg'onishi, milliy g'oyani targ'ib etish, xalq ongida milliy g'urur va qadriyatlarni kuchaytirishda, mustaqillik g'oyalariga sodiqlik hissiyotini, demokratiya va taraqqiyotga ishonchni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Muzeylar nafaqat tabiat va jamiyatning noyob hamda xilma-xil ashyolari xazinasi, balki muhim ilmiy, ma'rifiy-tarbiyaviy, ijtimoiy kommunikatsiyaning muhim halqasi va markazlari hamdir.

Bugungi kunda ta'lim yoki ijtimoiy-madaniy dam olish faoliyatini muzey komponentisiz, shuningdek muzey ishining o'ziga xos xususiyatlarini, ayniqsa, muzeyning ijtimoiy-madaniy ma'rifiy faoliyatini biladigan malakali talaba va malakali mutaxassissiz tasavvur qilish qiyin. Ta'kidlash lozimki, bu murakkab vazifa yangi pedagogik yo'nalish - muzey pedagogikasi doirasida o'quvchilarni muzey materiali bo'yicha o'qitish, tarbiyalash, ularda nazariy tushunchalarni shakllantirish, shuningdek, muzey muhiti va o'quv yurtlari sharoitida pedagogik muammolarni hal eta oladigan mutaxassislarni tayyorlashni muvaffaqiyatli hal etiladi. Muzeylarning yangi maqomi muzey ta'lim muhitida o'quv jarayonini amalga oshirish uchun mutaxassislar tayyorlashning turli tizimini, muzeylar va umumta'lim maktablari va oliy o'quv yurtlari o'rtasidagi hamkorlikning yangi shakl va usullarini ishlab chiqishni talab etadi.

Hozirgi davrda turli yoshdagi bolalar bilan muzey va ta'lim muassasalari o'rtasidagi aloqa aniq ma'lum bir maqsadga yo'naltirilmagan holda olib borilmoqda. Muzeylar o'sib kelayotgan yosh avlodni moddiy-ma'naviy merosga hurmat ruhida tarbiyalashda madaniy-tarixiy, tabiiy-ilmiy qadriyatlarni o'zida jamlaydigan ijtimoiy institut hisoblanadi. Shuning uchun

imrconf.com

ham muzey va maktablarning ta'lim sohasidagi faoliyatiga tizimli va dasturlashtirilgan holda yondashish talab etiladi.[1]

Muzey pedagogikasi pedagogika, psixologiya va muzeyshunoslikning o'zaro uyg'unligi natijasida shakllangan fan yo'nalishi hisoblanib, muzeylarning madaniy ma'rifiy faoliyati tarixi, xususiyatlari, muzeylarning turli toifadagi tashrif buyuruvchilarga ta'sir etish usullari, ularning ta'lim muassasalari bilan o'zaro aloqalarini o'rganuvchi fan sohasidir[2].

Muzeyda darslarni o'tkazish uchun bugungi kunga tegishli bo'lgan bir qator talablarni bayon qildi:

muzeyga har bir tashrif mashg'ulot sifatida o'tkazilishi, unda aniq (o'quv, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi) maqsadquyilgan bo'lishi kerak;

o'qituvchi va bolalar muzeyga tashrif buyurish shunchaki ekskursiya emas, balki jiddiy ish ekanligini va shuning uchun unga tayyorgarlik ko'rish kerakligini bilishlari lozim;

bolalarni charchamagan va idrok qilishga tayyor bo'lgan holda muzeyga tashrif buyurishi maqsadga muvofiq;

"nafaqat bolaning ongi, balki kattalar uchun ham og'ir bo'lgan" umumiy ekskursiyadan voz kechib, diqqatga sazovor joylarni tanlab olish muhim;

ekskursiyani o'tkazish uchun eksponatlami mavzuga oid hamda bolaning yosh hususiyatlari va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda tanlash lozim;

muzeyga tashrifning natijasida bolalar mustaqil ijodiy ish yaratishlari muhim(rasm chizish, ko'rgan narsasi asosida esse yozish, modellar yaratish va h.k.)[3]

B.A.Stolyarov tomonidan muzeyning o'quv-tarbiyaviy faoliyati, tarixiy voqelikka, atrofimizdagi olamga qimmatli munosabatini shakllantirish vositasi sifatidamuzey va tashrif buyuruvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning

[1] 1. Исмаилова Ж.Х., Нишанова К.С., Мухамедова М.С. Музей ва жамият. - Т.: Чинор ЭНК, 2015. - 176 б
[2] Lichtwark A. Obungen in der Betrachtung von Kunstwerken. - Berlin: Verlag von Bruno Cassire, 1909. - 230p.
[3] Столяров Б.А. Музейная педагогика История, теория, практика- М.: Высш. шк., 2004 —29-84с.

imrconf.com

yangi shakllarini izlab topish, aholining ijtimoiy va madaniy faoliyati masalalari, badiiy idrokni rivojlantirish, muzey orqali estetik tarbiyani shakllantirish masalalari atroflicha tahlil etilgan.[4]

AQShning yirik muzeylaridan sanalgan Nyu-Yorkdagi Metropoliten muzeyida talimiy maqsadga katta ahamiyat berilgan. Bu yerda nafis sanatni o'rganish va rivojlantirish maqsadida nemis va ingliz muzeylarining tajribasi qo'llanilganligi malum. Bugungi kunda Metropoliten kengligi, kolleksiyalarining sifati va tashrif buyuruvchilar bilan o'tkaziladigan ekskursiyalar, konsertlar, ma'ruzalar, kinofilmlar namoyishi kabi tadbirlar muzeyda talim shakllariga katta etibor berilganligini ko'rsatadi.

Metropoliten san'at muzeyida ko'rgazmaga tashrif buyuruvchilarni ekspozitsiyalar bilan tanishtiradigan birinchi yo'l ko'rsatgich va o'qituvchilar uchun qo'llanma nashr etilgan. Dam olish kunlari jamoatchilikka ma'ruzalar o'qilgan. Muzey ta'limiga bag'ishlangan maxsus"Metropoliten Byulleteni" nashr etilgan bo'lib, unda tashrif buyuruvchilarning barcha toifalari uchun turli xil dasturlarni, shu jumladan "keng jamoatchilik", talabalar, o'qituvchilar, dizaynerlar va hatto ko'zi ojizlar uchun ham ma'ruzalarni o'qitish masalalari muhokama qilingan. Lekin muzey talimi masalasida maxsus dasturlar ishlab chiqilgan bo'lsa ham talimiy faoliyat bilan muzey talimi o'rtasida jiddiy farq mavjudligi malum bo'ldi. Shuning uchun ham Metropoliten muzeyi birinchilardan bo'lib, tarixiy predmetlardan foydalangan holda tarix, geografiya va boshqa maktab o'quv fanlari bo'yicha darslarni liboslar, mebel namunalari, va boshqa asl tarixiy obyektlardan foydalanib qanday o'tkazish bo'yicha birinchi namuna ko'rsatdi.

Ko'plab xorijiy muzeylar teatrlashtirilgan sahnalardan foydalanmoqda. Bu ayniqsa, tarix va texnika muzeylarida samarali natija beradi. Mazkur tomoshalar bir guruh muzey xodimlarining ma'lum bir davrni o'zida aks ettiruvchi qahramonlar obraziga kirishi yoki muzey xodimlarining mavzu

[4] Столяров Б.А. Музейная педагогика История, теория, практика- М.: Высш. шк., 2004 —29-84с.

imrconf.com

bo'yicha libos kiyishi bilan namoyon bo'ladi. Bu sahnalar bolalarni jalb qilishda, ularning tarixiy tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugun muzey pedagogikasi oldida turgan vazifalar ko'p qirrali bo'lib, tashrifchilarni muzeyda namoyish qilinayotan voqea-hodisalarni his etish, eshitish, mulohaza yuritish va saboq olishga o'rgatadi. Muzeyda turli toifadagi avlodlar uchrashuvi va muloqot uchun shart-sharoit yaratish esa yaxshilik va yovuzlik, donolik va nodonlik, haqiqat va yolg'on kabi jihatlarning mazmun-mohiyatini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Muzey pedagogikasi yo'nalishida asosan muzeyning talim muassasalari bilan o'zaro hamkorligi ko'zda tutiladi. Mazkur yo'nalishning keng ommalashuvining sababi muzeylarga tashrif buyuruvchi turistlarni keng jalb qilish, turli noananaviy talim-tarbiya metodlaridan foydalanib, yosh avlodda mamlakatimiz tarixini o'rganishlarida va ularning talim-tarbiya olish jarayonlarida o'z xissasini qo'shishdan iborat. Bunda muzey xodimi va pedagoglar oldiga quyidagi faoliyat maqsadlari qo'yiladi:

• muzey va uning jamlanmalari orqali milliy qadriyatlarimizga tashrif buyuruvchilarda qiziqish uyg'otish;

• yoshlarda muzeyyodgorliklariga ehtiyotkorona, hurmat bilan munosabatda bo'lishni o'rgatish;

• yoshlarda o'zlarini mamlakatimiz tarixi, madaniyatining bir qismi sifatida anglash tuyg'ularini shakllantirish, tashkil etilgan muzey-pedagogik dasturlari asosida umumiy mavzu va pedagogik maqsadga oid tadbirlarni kiritishdan iborat.

«Muzey pedagogikasi» tushunchasi o'z mazmun-mohiyatida quyidagi funksiyalarni amalga oshirishni ifoda etadi:

Axborot berish — muzey, avvalo, tashrif buyuruvchilarga qaysidir sohada axborot beradi.

imrconf.com

Talim berish — muzey o'zida jamlangan materiallar vositasida tashrif buyuruvchilarning bilim doirasini kengaytirishda muhim o'rin tutadi, bundan tashqari, muzeydagi kommunikatsiya jarayonida tashrif buyuruvchilar muzey sohasida ayrim malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladilar. Muzey boshqa talim muassasalarida olingan bilimlarga qo'shimcha bilim olish imkoniga ega maskandir.

Ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni rag'batlantirish— muzey ayrim sohalarda tashrif buyuruvchining manaviy madaniyatini shakllantirish, uningshaxsiy ijodiy xislatlarini ochishga ijobiy tasir etuvchi maskan. Muzeyda shaxsni ijodiy jarayonlarga undovchi alohida sharoitlar mavjud. Eng muhimi uning tasirchan «ilxom baxsh etuvchi» imkoniyatga egaligi, o'tmish qadriyatlari, anana va urf-odatlar aks etganligidir.

Muloqotchanlikni shakllantirish — muzey mavzusiga oid mavzularda qiziqishlar bo'yicha turli tadbirlarning tashkil etilishi jarayonida o'smir-yoshlar faol muloqotga chorlanadi. Muzey taqdim etadigan muzey-axborotlari muloqotchanlikka qulay imkoniyat yaratadi, bunda mazmunli, qiziqarli, norasmiy shaxsiy muloqot yuzaga keladi. Muloqot uchrashuv, seminar, viktorina va boshqa tadbirlar shaklida o'tkazilishi mumkin.

Xorij muzeylarida muzey xodimlari tomonidan muzey-pedagogik dasturlari joriy etilgan, dasturlar asosan o'quvchi-yoshlar, talabalar auditoriyasiga mo'ljallangan muzey zallari bo'ylab interaktiv sayoxat, turli tadbirlardan tashkil etiladi. Umuman olganda, muzeyda marifiy sohada tashkil etiladigan va amalga oshiriladigan ishlarning mazmun-mohiyati juda ko'p qirralidir. Mazkur ishlarning asosiy shakllari: ananaviy (ekskursiyalar, leksiyalar, ommaviy tadbirlar o'quv mashg'ulotlari), noa'anaviy (onlayn darslar, vebinarlar, video konferensiyalar)kabilardan iborat.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida muzey pedagogikasi imkoniyatlaridan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha quyidagi ilmiy-uslubiy tavsiyalarni shakllantirdik.

imrconf.com

- Muzey va ta'lim muassasalari o'rtasida uzviy hamkorlik mexanizmlarini yaratish;

- Turli yoshdagi auditoriya bilan ishlashda muzey ta'limining pedagogik-psixologik xususiyatlarini xisobga olish;

- Muzey xodimlari va ta'lim muassasalari o'qituvchilari hamkorligida maktab va muzey ta'limini integratsiyalovchi innovatsion dasturlarni ishlab chiqishva amaliyotga joriy etish ("Muzey o'quv muhitidagi maktab", "Maktabdagi muzey pedagogikasi", "Muzey va ta'lim", " Salom,muzey!" "Madaniyat orqali ta'lim" va x.k.);

- Muzey pedagogikasi faoliyatiga noananaviy talim shakl va metodlarini kiritish(onlayn darslar, vebinarlar, video konferensiyalar, kino namoyishlari, o'yinlar, teatrlashtirilgan dars va b.).

Xulosa sifatida aytish mumkinki zamonaviy muzey pedagogikasi birinchi navbatda, o'sib kelayotgan avlodda o'tmish ajdodlari ruhiga hurmat bilan munosabatda bo'lish, o'z Ona Vatani tarixiga qiziqishni o'stirish, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish, bolalar va o'smirlarda muzey madaniyatini shakllantirishga yo`naltirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Исмаилова Ж.Х., Нишанова К.С., Мухамедова М.С. Музей ва жамият. - Т.: Чинор ЭНК, 2015. - 176 б

2. Lichtwark A. Obungen in der Betrachtung von Kunstwerken. - Berlin: Verlag von Bruno Cassire, 1909. - 230p.

3.Столяров Б.А. Музейная педагогика История, теория, практика- М.: Высш. шк., 2004 —29-84с.

4.Столяров Б.А. Музейная педагогика История, теория, практика- М.: Высш. шк., 2004 —29-84с.

imrconf.com